



arim, shekilli, o'tloqda uxlaganga o'xshaydi", deb o'yladi. So'ng ichki bir xavotir bilan bu yerdan tezroq ketishga qaror qilib sigirini sudradi. Targ'il tixirlik qilgach, qo'lidagi tayoq bilan yelkasiga tushirdi. Sigir boshini qattiq siltadi-da, chopib ketdi... Arqon O'tkirning qo'lini shilib yubordi. Arqonni jahl bilan itqitayotib yuztuban yiqildi. Lekin darrov sakrab turdi-da, sigirining ketidan yugurdi. Uning bo'yni, qulog'i qattiq achishib og'rirdi. U bo'ynini ushlab tepaga qaradi! Boshi ustida o'ntacha qovog'ari uni ta'qib qilib kelardi. O'tkir beixtiyor to'xtadi. Arilar shuni kutib turganday unga yopirildi...

Dehqonlarga ovqat pishirish uchun shiyponga ketayotgan Rahima opa yerda behush yotgan bolani ko'rib qolib, qorovulni chaqirdi. Qorovul O'tkirni qo'lida ko'tarib, uyiga olib bordi...

Sardor kun yoyilib ketguncha maza qilib uxladi. Nonushta qilgach, birorta o'rtog'im ko'rinib qolarmikan, deb ko'chaga chiqdi. Shu chog' yonginasidan "Tez yordam" mashinasi chinqirib o'tdi-yu, O'tkirlarning darvozasi yonida to'xtadi. "Tez yordam"dan tushgan ikki shifokor zambil ko'targancha ichkariga kirib ketdi. Sardor, Zamira buvim kasal bo'lib qoldilarmikan, deb o'ylab o'sha tomonga yurdi. U yetib kelmasdan shifokorlar zambilda kimnidir olib chiqib, "Tez yordam"ga yotqizdi-da, sirenasini chinqirtirib ortiga qaytdi. Zamira buvi voqeani Sardorga so'zlab berdi.

O'tkir bir hafta shifoxonada yotdi. Uyga qaytgach, Sardor uni ko'rgani chiqdi.

– O'rtoq, to'g'ri aytgan ekansan. Boplab o'ch oldi, mittivoylar. Toza ta'zirimni yedim. Endi nafaqat ari, chumolining ham uyini buzmayman. Axir, ular ham tabiatning bolasi, – dedi O'tkir.

– To'g'ri, endi jonivorlarga ozor bermaymiz, – uning fikriga qo'shildi Sardor.



1. Yaylovda qanday voqea yuz berdi?
2. O'tkirning xavotirga tushishiga nima sabab bo'ldi deb o'ylaysiz?
3. Nima uchun hikoya "Arining qasosi" deb nomlangan?
4. Zamira buvi qanday voqeani Sardorga so'zlab bergan bo'lishi mumkin?
5. O'tkir qilgan ishidan qanday xulosa chiqardi?
6. Sizningcha, bunday holat yuz bermasligi uchun nima qilish kerak edi?
7. *"Axir, ular ham tabiatning bolasi"*, degan fikrni izohlang.



eti junjikmoq – salqindan qaltiramoq
yamlamoq – chaynamay, og'iz ichida aylantirmoq
pocha – kiyimning tizzadan pastki qismi
karaxt – harakatsiz
tixir – o'jar, qaysar



"Tabiat bolasi" mavzusida kichik matn tuzing.
Hikoyadan so'zning oxirgi harfidan boshlanadigan so'zlar zanjirini hosil qiling.

Namuna: Murod – daraxt – ...



Hikoya mazmunini so'zlab bering.